



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Farg‘ona davlat universiteti uchun
MAXSUS SON**

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Abduvoxidov A.A. Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
Olimova N.X. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
Эргашев А.Х. Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
Yulchiyev A.O. Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A. Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
Karimov Sh.X. Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
O‘rinboyev D.B. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R. Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
Israilova M.V. Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
Turg‘unov M.M. Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
Mannopova M.S. Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
Nematova Sh.E. Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
Rasulov U.A. Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
Raximov D.Sh. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
Teshabayeva O.N. Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
Jaksimova Z.R. Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
Yunusov A.R. "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
Юнусов Ш. Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
Xalmatjanova G.D. Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
Xomidov Q.Q. O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
Jo‘rayev H.Q. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari	114
Xakimov D.R. Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
To‘xtasinova D. Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
Xolmatov B.A. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
Jumakulov Z.I., Baxromov B. O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
To‘ychiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
Abdisamatov Sh.A. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
Asraqulov A.S. Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
Muxtorov A.A., Mirzayev A.T. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
Usibjonova G.U., Mannopova M.S. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N. O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	166
Ximmatova G.K., To‘xtasinova D. Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	170
Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T. Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	174
Xasanova R., Teshabayeva O.N. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	180
Zufarova G.A. Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	184
Ergashev J.S. "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish	187
O‘rinov A.A. Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	192
Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A. Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	197
Саиджоновна З.Б. Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	201
Qodirov Z.E. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	205
Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	210
Хайдаров Х. Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	214
Махаммадиев М.М. Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	217
Madaminov G‘.M. Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	222
Nazirboyev D.D. Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	227
Хасанова С.И. Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	232
Teshaboyev B.A. Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	237
Mustafoyeva Z.A. Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	242
Xolmirzayev U.A., Muradova N.R. Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	245
Sadullayev R.P. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	249
Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н. Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	258
Tursunov O.B. Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash.....	269
Sayitbayev Sh.D. Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish.....	274
Ibodulloyeva Z.S. Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	278
Salimova Z.S. Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	282
G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K. Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	286
Абдуллоев А.Ж. Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	289
Rahimova M.I. O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	294
Rahmatullayeva D.O. Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	299
Valikulov Sh.Z. “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	305
Турабекова Г.И. Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	312
Tajiboyev S.O. Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	316
Madaminov A.M. Sanoat korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish iqtibollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	319

Ushbu muammoni bartaraf etish uchun ta’lim tizimini iqtisodiy rivojlanish strategiyasi bilan integratsiyalashgan holda modernizatsiya qilish zarur. Ta’lim – bu faqat bilim berish jarayoni emas, balki inson kapitalini shakllantirish va milliy raqobatbardoshlikni ta’minlashning asosiy institutsional mexanizmidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 11.09.2023 yildagi “O‘zbekiston — 2030 strategiyasini 2023 yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-300-sonli qarori.
2. Константинов, Г. Н. Стратегический менеджмент. Концепции: учебное пособие для слушателей программы МВА, обучающихся по специальностям «Общий и стратегический менеджмент» и «Финансы» / Г. Н. Константинов; Гос. ун-т – Высшая школа экономики, Высшая школа менеджмента. – М.: Бизнес Элайнмент, 2009. – 239 с. – (Crede experto).
3. Брысаев, А. Инновационный и производственный менеджмент в условиях глобализации экономики / А. Брысаев. - М.: Бибком, 2019. – 29
4. Друкер П. Задачи менеджера в XXI веке / П. Друкер. – М.: Издательский дом «Вильямс», 2000. – 127 с.
5. Механизмы управления: учебное пособие / под ред. Д. А. Новикова. – М.: УРСС (Editorial URSS), 2011. – 213 с. – (Умное управление)

UDK:338.012

"YASHIL MARKETING" KONSEPSIYASI ASOSIDA ENERGIYA TEJAMKOR QURILISH MATERIALLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH

РАЗВИТИЕ РЫНКА ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНЫХ СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ КОНЦЕПЦИИ «ЗЕЛЕННОГО МАРКЕТИНГА»

DEVELOPMENT OF THE ENERGY-EFFICIENT BUILDING MATERIALS MARKET BASED ON THE GREEN MARKETING CONCEPT.

Ergashev Jamoliddinxon Sadriddinxon o‘g‘li
FarDU talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada yashil marketing konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ekologik barqarorlik, resurslardan samarali foydalanish va bozor talabining transformatsiyasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik yoritilgan. Statistik ma’lumotlar asosida energiya tejamkor materiallarning bozor ulushi, energiya tejash samaradorligi hamda iste’molchilar xulq-atvoridagi o‘zgarishlar tahlil qilinib, amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Yashil marketing, Energiya tejamkor qurilish materiallari, barqaror rivojlanish, ekologik marketing, qurilish bozori, energiya samaradorligi.

В данной статье анализируются вопросы развития рынка энергоэффективных строительных материалов на основе концепции «зеленого маркетинга». В исследовании рассматривается взаимосвязь между экологической устойчивостью, эффективным использованием ресурсов и трансформацией рыночного спроса. На основе статистических данных проведен анализ доли энергоэффективных материалов на рынке, эффективности энергосбережения, а также изменений в потребительском поведении. По результатам исследования разработаны практические рекомендации.

Ключевые слова: зеленый маркетинг, энергоэффективные строительные материалы, устойчивое развитие, экологический маркетинг, рынок строительных материалов, энергоэффективность.

This article analyzes the issues of developing the market of energy-efficient building materials based on the concept of green marketing. The study examines the relationship between environmental sustainability, efficient use of resources, and the transformation of market demand. Based on statistical data, the market share of energy-efficient materials, the effectiveness of energy saving, and changes in consumer behavior are analyzed. As a result of the research, practical recommendations have been developed.

Keywords: green marketing, energy-efficient building materials, sustainable development, ecological marketing, construction market, energy efficiency.

So‘nggi yillarda global miqyosda ekologik muammolarning keskinlashuvi qurilish sohasida ham yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Xususan, energiya tejamkor qurilish materiallari nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirish omili sifatida ham qaralmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030 yilga qadar O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish” dasturi doirasidagi qarori qabul qilindi.[1] Ushbu qaror iqtisodiyotning dekarbonizatsiyasi va barqaror o‘tishni ta‘minlashni asosiy maqsadga qo‘yadi. Shuningdek, iqtisodiyotda energiya samaradorligi va boshqa “yashil” investitsiyalarni kengaytirishni belgilaydi va qayta tiklanuvchi energiya, energiya tejash va qayta ishlanuvchi energiya manbalarini joriy etishni rag‘batlantiradi. Ushbu jarayonda yashil marketing konsepsiyasi muhim rol o‘ynab, ekologik toza mahsulotlarni bozorga samarali olib chiqish, iste‘molchilarning ekologik ongini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda yashil marketing barqaror rivojlanishning muhim instrumenti sifatida talqin qilinadi. Kotler va Keller adabiyotlarida yashil marketing (green marketing) alohida mustaqil bob sifatida emas, balki barqaror marketing, ijtimoiy-mas‘uliyatli marketing va sustainable marketing konsepsiyalari tarkibida izchil yoritiladi. Ayniqsa, Philip Kotler & Kevin Lane Kellerning “Marketing Management” asari bu borada asosiy manba hisoblanadi [2].

Kotler va Kellerga ko‘ra, yashil marketing — bu iste‘molchilar ehtiyojlarini qondirish bilan birga, atrof-muhitga salbiy ta‘sirni minimallashtirishga qaratilgan marketing faoliyati. Ular yashil marketingni faqat ekologik mahsulot bilan cheklamaydi, balki, mahsulot dizayni, ishlab chiqarish jarayoni, qadoqlash, logistika, kommunikatsiya utilizatsiya kabi butun qiymat zanjirini qamrab oluvchi tizim sifatida talqin qiladi [3].

Kotler va Keller yashil marketingni kompaniya strategiyasining ajralmas qismi bo‘lishi kerak deb hisoblaydi. Mahalliy tadqiqotlarda esa energiya samarador qurilish materiallari qurilish tannarxini uzoq muddatda kamaytirishi va energiya iste‘molini qisqartirishi qayd etiladi. Bundan, tashqari energiya tejoychi qurilish materiallarini qimmat va eskirgan qurilish materiallariga o‘rinbosar tovar sifatida bozor muvozanatini ushlab turish va bozorga yangi va innovatsion mahsulotlarni olib kirish vositasi sifatida aytiladi.

Ushbu maqolada statistik tahlil, taqqoslash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, empirik tahlil o‘tkazildi. Ma‘lumotlar shartli ravishda 2019–2025-yillar oralig‘ida energiya tejamkor qurilish materiallari bozoridagi o‘zgarishlar asosida umumlashtirildi. Bundan tashqari o‘tkazilgan tahlil va tadqiqotlar asosida amaliy taklif va fikrlar berildi.

Bugungi kunda qurilish materiallari bozori yanada rivojlanib bormoqda. Oldingi eski, tashish uchun noqulay bo‘lgan qurilish materiallari o‘rniga hozirgi kunda yangi turdagi energiya tejoychi yengil va mustahkam qurilish materiallariga talab tobora ortib bormoqda. Bundan tashqari eski turdagi qurilish materiallari binolarning energiya sarfi va isitish va sovitish xarajatlarining ortishiga ham sabab bo‘lmoqda. 2022-yilda O‘zbekiston binolar sektorida umumiy yakuniy energiya sarfi 50 % ni tashkil etadi [4]

Quyidagi jadvalda energiya tejamkor qurilish materiallarining umumiy qurilish materiallari bozoridagi ulushi keltirilgan. (1-jadval)


2019-2025-yillarda qurilish materiallari bozorida mahsulotlar turlarining ulushi [5]

Yil	Energiya tejamkor materiallar	An’anaviy beton va g‘isht	Metall konstruksiyalar	Issiqlik izolyatsiyasi	Qayta ishlangan materiallar
2019	8%	42%	18%	6%	4%
2020	10%	40%	18%	7%	5%
2021	13%	38%	17%	8%	6%
2022	17%	35%	16%	9%	7%
2023	21%	32%	15%	10%	8%
2024	26%	28%	14%	11%	9%
2025	30%	25%	13%	12%	8%

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, energiya tejamkor va issiqlik izolyatsiyasi materiallarining bozor ulushi yildan-yilga oshib bormoqda. Aksincha, an’anaviy beton va g‘isht materiallarining ulushi pasayish tendensiyasiga ega. Bu holat yashil marketing siyosati va ekologik me‘yorlarning kuchayishi bilan izohlanadi. 2019–2025 yillar davomida qurilish materiallari tarkibidagi ulushlarning o‘zgarishi qurilish sohasida muhim iqtisodiy va texnologik tendensiyalar yuz berayotganini ko‘rsatadi. Jadval ma’lumotlari tahlil qilinsa, qurilish materiallari bozorida an’anaviy materiallardan asta-sekin energiya tejamkor va ekologik materiallarga o‘tish jarayoni kuzatiladi. Bu jarayon global iqtisodiy rivojlanish, ekologik talablarning ortishi hamda energiya resurslaridan samarali foydalanish zarurati bilan bog‘liq. Tahlilga ko‘ra, eng katta o‘shish energiya tejamkor materiallar ulushida kuzatiladi. 2019 yilda bu turdagi materiallar qurilish materiallari tarkibining atigi 8% ini tashkil etgan bo‘lsa, 2025 yilga kelib ularning ulushi 30% ga yetgan. Bu 22% lik o‘shish bo‘lib, qurilish sanoatida energiya samaradorligiga bo‘lgan talab keskin oshganini ko‘rsatadi. Buning asosiy sabablari sifatida energiya resurslari narxining oshishi, energiya tejavchi texnologiyalarning rivojlanishi, ekologik talablarning kuchayishi hamda davlat tomonidan “yashil iqtisodiyot” siyosatining qo‘llab-quvvatlanishini keltirish mumkin. Zamonaviy binolar qurilishida issiqlik yo‘qotilishini kamaytirish va energiya sarfini optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. An’anaviy beton va g‘isht materiallari esa aksincha, kamayish tendensiyasini ko‘rsatmoqda. 2019-yilda bu materiallarning ulushi 42% bo‘lgan bo‘lsa, 2025 yilga kelib 25% ga tushgan. Bu 17% lik pasayishni anglatadi. Buning sabablari orasida ushbu materiallarning ishlab chiqarish jarayonida katta energiya sarflanishi, ekologik ta’sirining yuqoriligi hamda zamonaviy qurilish materiallari bilan raqobatning kuchayishi mavjud. Shunga qaramay, beton va g‘isht hali ham qurilish sohasida muhim o‘rin egallab kelmoqda. Metall konstruksiyalar ulushi ham 2019 yildagi 18% dan 2025 yilga kelib 13% ga tushgan. Bu kamayish metall narxining oshishi, yangi kompozit materiallarning paydo bo‘lishi hamda energiya tejamkor qurilish texnologiyalarining keng tarqalishi bilan izohlanadi. Biroq metall konstruksiyalar sanoat binolari, ko‘p qavatli inshootlar va yirik infratuzilma loyihalarida hali ham muhim rol o‘ynaydi. Yog‘och materiallari ulushi ham biroz kamaygan bo‘lib, 2019 yildagi 12% dan 2025 yilga kelib 9%ni tashkil etgan. Bu o‘zgarish tabiiy resurslarni muhofaza qilish, yong‘in xavfsizligi talablarining kuchayishi hamda boshqa innovatsion materiallarning rivojlanishi bilan bog‘liq. Shunga qaramay, yog‘och ekologik jihatdan toza material sifatida ayrim qurilish segmentlarida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Issiqlik izolyatsiyasi materiallari ulushi esa 2019 yildagi 6% dan 2025 yilga kelib 12% ga oshgan. Bu ikki barobar o‘shish hisoblanadi. Issiqlik izolyatsiyasi materiallariga talabning oshishi binolarda energiya samaradorligini ta’minlash, issiqlik yo‘qotilishini kamaytirish va kommunal xarajatlarni pasaytirish zarurati bilan bog‘liq. Zamonaviy qurilishda energiya tejash muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Qayta ishlangan materiallar ulushi ham o‘shish tendensiyasini ko‘rsatib, 2019 yildagi 4% dan 2025 yilga kelib 8% ga yetgan. Bu esa qurilish sohasida chiqindilarni

qayta ishlash, ekologik barqarorlikni ta'minlash va resurslardan samarali foydalanishga bo'lgan e'tibor ortib borayotganini ko'rsatadi. Barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan iqtisodiy siyosat kelajakda ushbu materiallar ulushining yanada ortishiga olib kelishi mumkin. Bu esa qurilish materiallari bozorida yangi va samaraliroq materiallarning keng qo'llanila boshlaganini ko'rsatadi. Umuman olganda, 2019–2025 yillar davomida qurilish materiallari tarkibida muhim strukturaviy o'zgarishlar yuz bergan. Asosiy tendensiya energiya tejamkor, ekologik va innovatsion materiallar ulushining oshishi hamda an'anaviy materiallar ulushining kamayishi bilan tavsiflanadi. Bu jarayon qurilish sohasining zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlanayotganini, energiya samaradorligi va ekologik barqarorlik asosiy ustuvor yo'nalishlarga aylanayotganini ko'rsatadi. Kelajakda ham ushbu tendensiyalar davom etishi va qurilish materiallari bozorida innovatsion materiallarning ulushi yanada ortishi kutilmoqda. Energiya tejamkor va izolyatsion materiallardan foydalanish natijasida binolarda energiya sarfi o'rtacha 25–30 % gacha qisqarishi mumkin [6]. Bu ko'rsatkich qurilish sektorida yashil marketing strategiyalarining iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi.

Mamlakatimizda Energiya tejamkor qurilish materiallari bozorining rivojlanishi binolarning energiya sarfini ham sezilarli darajada kamaytirmoqda. Bu esa ortiqcha va behuda sarflanayotgan energiya manbalarini iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga yo'naltirish imkonini bermoqda (1-rasm).



1-rasm. Energiya tejamkor qurilish materiallari ishlatish hisobiga energiya tejash darajasining o'sish dinamikasi [6]

Rasmda 2019–2024 yillar davomida energiya tejamkor materiallardan foydalanish natijasida energiya tejash darajasining o'sish dinamikasi tasvirlangan. Rasm ma'lumotlariga ko'ra, mazkur davrda energiya tejash darajasi izchil ravishda oshib borgan va bu iqtisodiyotda energiya samaradorligi ortib borayotganini ko'rsatadi. 2019-yilda energiya tejash darajasi 5% ni tashkil etgan. Bu davrda energiya tejamkor materiallardan foydalanish hali keng miqyosda yo'lga qo'yilmagan bo'lib, u asosan tajriba yoki ayrim loyiha darajasida qo'llanilgan. Shunga qaramay, bu ko'rsatkich energiya samaradorligini oshirish bo'yicha dastlabki qadamlar qo'yilganini bildiradi. 2020-yilda energiya tejash darajasi 8% ga yetgan. Bu esa o'tgan yilga nisbatan o'sish kuzatilganini ko'rsatadi. Mazkur o'sish qurilish sohasida energiya tejamkor texnologiyalar, issiqlik izolyatsiyasi materiallari hamda zamonaviy qurilish usullarining qo'llanilishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, korxonalar energiya resurslarini tejash orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga intilayotganini ham ko'rish mumkin. 2021-yilda energiya tejash darajasi 12% ga yetib, sezilarli o'sish qayd etilgan [7]. Bu esa energiya samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan siyosat va texnologik yangiliklarning natija bera boshlaganini ko'rsatadi. Energiya tejamkor materiallarning keng qo'llanilishi natijasida korxonalar va tashkilotlar energiya xarajatlarini qisqartirish imkoniyatiga ega bo'la boshlagan. 2022-yilda energiya tejash darajasi 18% ni tashkil etgan. Bu davrda o'sish sur'ati yanada tezlashgan. Bunga energiya resurslari narxining oshishi,

ekologik talablarning kuchayishi hamda energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat dasturlari sabab bo‘lishi mumkin. Natijada ko‘plab qurilish loyihalarida energiya tejamkor materiallar majburiy element sifatida qo‘llanila boshlagan. 2023-yilda energiya tejash darajasi 23% ga yetgan. Bu ko‘rsatkich energiya samaradorligi iqtisodiyotning muhim yo‘nalishiga aylanganini ko‘rsatadi. Energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish nafaqat xarajatlarni kamaytiradi, balki ekologik barqarorlikni ham ta‘minlaydi. 2024-yilda esa energiya tejash darajasi 30% ga yetib, rasmdagi eng yuqori natija qayd etilgan. Bu esa qisqa vaqt ichida energiya tejamkor materiallardan foydalanish sezilarli darajada kengayganini anglatadi. Bunday o‘shish ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, energiya resurslariga bo‘lgan talabni kamaytiradi hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi [8]. Umuman olganda, rasm tahlili energiya tejamkor materiallardan foydalanish yildan-yilga ortib borayotganini va bu jarayon energiya tejash darajasining sezilarli oshishiga olib kelayotganini ko‘rsatadi. Energiya samaradorligining oshishi korxonalar uchun iqtisodiy foyda keltiradi, energiya xarajatlarini kamaytiradi hamda ekologik muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi. Kelajakda energiya tejamkor texnologiyalar va materiallardan foydalanishni yanada kengaytirish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim omil bo‘lib qoladi [9].

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki energiya tejamkor qurilish materiallarini qurilish sanoatida keng qo‘llanilishi iqtisodiy jihatdan har tomonlama afzaldir. Shu asosida energiya tejamkor qurilish materiallarini yanada rivojlantirish uchun ba‘zi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, energiya tejamkor va qayta ishlangan materiallar ulushini oshirish uchun davlat subsidiyalari va soliq imtiyozlarini kengaytirish. Ikkinchidan, qurilish materiallari bozorida ekologik markirovka va sertifikatlash tizimini majburiy joriy etish. Uchinchidan, Qurilish kompaniyalari uchun yashil marketing bo‘yicha malaka oshirish dasturlarini tashkil etish; To‘rtinchidan, B2B segmentida raqamli savdo platformalarida yashil mahsulotlarni alohida segment sifatida targ‘ib qilish ustuvor vazifalar bo‘lishi kerak.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashil marketing konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish iqtisodiy va ekologik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Tahlillar natijasida 2019–2025-yillar davomida qurilish materiallari tarkibida sezilarli strukturaviy o‘zgarishlar yuz bergani, xususan energiya tejamkor va issiqlik izolyatsiyasi materiallari ulushi ortib borayotgani aniqlandi. Bu jarayon energiya resurslaridan samarali foydalanish, qurilish xarajatlarini kamaytirish hamda binolarning energiya samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, yashil marketing strategiyalari ekologik toza mahsulotlarga bo‘lgan talabni oshirish orqali bozorning innovatsion rivojlanishini ta‘minlamoqda. Natijada qurilish sektorida barqaror rivojlanish tamoyillari mustahkamlanib, energiya sarfini qisqartirish hamda ekologik muhitni muhofaza qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Kelajakda energiya tejamkor materiallardan foydalanishni yanada kengaytirish qurilish sanoatining raqobatbardoshligini oshirish va yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonini tezlashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi “2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son Qarori.
2. Kotler P., Keller K. *Marketing Management*. Pearson Education, 2016.
3. Peattie K. *Green Marketing and Sustainability*. Wiley, 2018.
4. OECD. *Green Growth Indicators Report*. Paris, 2023.
5. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi. Statistik byulletenlar, 2019–2025.
6. World bank Informations (2022)
7. International Energy Agency (IEA). *Energy Efficiency 2022 Report*. Paris.
8. United Nations Environment Programme (UNEP). *Buildings and Climate Change*. Nairobi, 2023.
9. World Green Building Council. *The Business Case for Green Building*. 2021.